



CHET EL TAJRIBASIDA 4K MODEL VA UNING SHAXSLARARO MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIRI

Rahmonov O.B.

Navoiy shahri 18-umumta'lim maktabi direktori

Tayanch so'zlar: 4K modeli, shaxslararo muloqot, ko'nikma, model, ta'lim siyosati, kompetensiya.


Ключевые слова: 4К-модель, межличностное общение, навык, модель, образовательная политика, компетенция.

Key words: 4K model, interpersonal communication, skill, model, educational policy, competence.

Bir qator tadqiqotlarda milliy ta'lim kun tartibiga kiritilgan turli xil mavzular, professional kadrlarni shakllantirish, ta'lim berish sifatini oshirish va uni o'rganishga qaratiladi. Ushbu ko'nikmalarni rivojlanish sur'ati oshib borayotgan davlatlardan Gonkong, Janubiy Koreya, Singapur, Yaponiya, shuningdek, Osiyo, Tinch okeani mintaqasidagi mamlakatlardan tortib to Vyetnamgacha o'sib bormoqda.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ushbu mamlakatlarning ta'lim siyosati va ta'lim standartlarini belgilaydigan hujjatlarida eng ko'p uchraydigan masalalar o'quvchilarlar tomonidan shakllantirilishi kerak bo'lgan munosabat va boshqa ta'lim natijalarini o'rganish mumkin. Ular orasida birinchi o'rinlarni tanqidiy fikrlash va innovatsion yoki ijodiy fikrlash, o'zini boshqarish va boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish qobiliyati egallaydi.

152 mamlakatda o'tkazilgan shunga o'xshash tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ko'pincha hujjatlarda kommunikatsiya, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi vakolatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan [1]. Buni amalga oshirish uchun biz to'rtta muhim narsaga javob berihimiz kerak. Standartlar va dasturlar asoida yangi kompetensiyalar va ko'nikmalarni ta'limga qanday integratsiya qilish kerak? Tarkib asosida maktab darsida



1-rasm. O'zbekiston davlat ta'lim standartiga qo'yiladigan malaka talablar


o'rganilayotgan mavzularni qanday shakllantirish kerak? Ularni qanday baholash kerak? Maktabda yangi amaliyotni qanday tarqatish kerak? Birinchi savolga javob berishdan boshlaylik. Keling, "4K" modeli ko'nikmalarining tuzilishini ko'rib chiqamiz va ularning tarkibiy qismlarini ta'kidlaymiz.

XXI asr ko'nikmasi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat

ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi hujjatda qo'yiladigan talablar quyidagicha berilgan [2]. (1-rasm)

Shaxslararo muloqot o'quvchilarning bitta sinf o'quvchilariga savollar berish va ularning savollariga ular uchun tushunarli tarzda javob berish qobiliyatida namoyon bo'ladi, agar tushunarsiz bo'lib qolsa, tushuntirish uchun murojaat qilish mumkin, bo'lmasa xabarlarda yoki mulohazalarda va o'z navbatida o'zingizni tushuntirish qobiliyatingiz orqali g'oyalar va takliflar berishi mumkin.

Ushbu kompetensiyaning tuzilishi quyidagicha ifodalanadi. (2-rasm)



4K tamoyili asosida Avstraliya umumiy ta'lim standartining (tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, hamkorlik, kommunikatsiya ko'nikmalari jamoada ishlash, o'zaro aloqada bo'lish va hamkorlik qilish qobiliyati ushbu davlat ta'lim standarti talablariga qanday mos kelishini batafsil tahlil qilamiz. Bunda muhim metafan natijalari va boshqa fanlar aloqasi bilan muhimdir.



3-rasm. Avstraliya umumiy ta'lim standartining tuzilishi [3]


Tadqiqot ishimiz jarayonida 4K tamoyili asosida Avstraliya umumiy ta'lim standartining tuzilishi bilan tanishib chiqdik. (3-rasm)


Shuningdek, XXI asr ko'nikmalari hayot uchun eng muhim sifatida turli sohalardagi mutaxassislar tayyorlashda Kanada davlati ham peshqadamlikni qo'ldan bermay kelayotgan davlatlar hisoblanadi. Ular XXI asr ko'nikmalariga hayot uchun eng ahamiyatli deb bilgan ko'nikmalar: xarakterni tarbiyalash, fuqarolik savodxonligi, muloqot, tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish, hamkorlik, kreativlik ko'nikmalariga urg'u berib o'tgan. Bizningcha, 4K modeli asosida o'quvchilarning shaxslararo muloqot ko'nikmalarini "Tarbiya" fani darsi va "Ma'naviyat soat"lari orqali o'quvchilarning XXI asr ko'nikmalari uchun xarakter hususiyati ahamiyatli hisoblanadi.

Kanada ta'lim standartida ta'lim natijalari modeli [4]

Ushbu rasmlarda keltirilgan ma'lumotlar XXI asr ko'nikmalari orqali hayotga tayyorlaydi. Aks holda ular ular maktab bitiruvchilariga kerak bo'lgan turli xil savodxonlik turlari bilan bir qatorda ta'limning majburiy natijasi sifatida maqsadiga erisholmaydilar.

Tadqiqotimiz jarayonida Finlyandiyaning ta'lim standarti ta'lim natijalari





modelini o'rgandik [5]. Tadqiqotda Finlyandiyaning ta'lim standarti shaxs va fuqaro sifatida rivojlangan tamoyili asosida ish olib boriladi. Fikrlash va mahorat; madaniy kompetensiya, o'zaro ta'sir va o'zini namoyon qilish; o'zi haqida o'ylash va kundalik hayotni boshqarish; multi savodxonlik; AKT savodxonligi; karyera rivojlanishi va tadbirkorlik; barqaror kelajakni qurish va ishtirok etishga jalb qilishga qaratiladi. (4-rasm)

Bizningcha, Finlyandiyaning ta'lim standarti bo'yicha XXI asr ko'nikmalari modeli bugungi kunda inson hayotida muhim rol vazivasi fikrlash va mahorat; madaniy kompetensiya, o'zaro ta'sir va o'zini namoyon qilish; o'zi haqida o'ylash va kundalik hayotni boshqarish; multi savodxonlik; AKT savodxonligi; karyera rivojlanishi va tadbirkorlik; barqaror kelajakni qurish masalalari hayotda muhim rol hisoblanadi. Ayniqsa 4K modeli asosida o'quvchilarning shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda hayot tarzimizning mukammal bo'lishida ahamiyatli hisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Care E., Kim H., Vista A., Anderson K. Education System Alignment for 21st century skills: Focus On Assessment. — Brookings institution, 2018.
2. 187-сон 06.04.2017. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida (lex.uz)
3. Система школьного образования в Австралии (kiwieducation.ru)
4. Bekimbetova G.R. 4K tamoyili asosida o'quvchilarning Qoraqalpoq tili fanidan kolleborativ ko'nikmalarini rivojlantirish paradigmasi // International journal of recentli scientific researcher's theory. International scientific journal. ResearchBib Imfact Factor: 7.1. Volume: 2. Issue: 2. February. 2024. ISSN: 2992-8885. uzresearchers.com. — P.191-198. (13.00.00; №14).

Bekimbetova G.R. Qoraqalpoq tili fanidan o'quvchilarning 4K ko'nikmalarini rivojlantirishning amaliy ahamiyati // International journal of recentli scientific researcher's theory. International scientific journal. ResearchBib Imfact Factor: 7.1. Volume: 2. Issue: 2. February. 2024. ISSN: 2992-8885. uzresearchers.com. —P.185-190. (13.00.00; №14).

РЕЗЮМЕ

Maqolada rivojlangan chet el davlatlarida 4K modeli tajribasida va uning shaxslararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga ta'siri haqida so'z yuritiladi.

РЕЗЮМЕ

В статье рассказывается об опыте применения модели 4K в развитых зарубежных странах и ее влиянии на развитие навыков межличностного общения.

SUMMARY

The article talks about the experience of the 4K model in developed foreign countries and its impact on the development of interpersonal communication skills.